



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI SIVILIZATSIYASIDA ARAB TILINING TUTGAN O'RNI

Abdusalomova Xulkaroy Kodirjon qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

3 bosqich talabasi

Telefon raqam: +998934036623

Elektron pochta: abdusalomovaxulkaroy5@gmail.com

Muminova Dilshoda

Ilmiy rahbar: O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18951070>

Annotatsiya

Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlari sivilizatsiyasida arab tilining tutgan o'rniga bag'ishlangan. Unda arab tilining Markaziy Osiyoga kirib kelishi hamda islom sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotda tutgan o'rni bayon etiladi. Maqolada Markaziy Osiyoda shakllangan ilmiy muhit, mahalliy allomalarning arab tilida yaratgan asarlari va ularning mintqa hamda umumislomiy ilm-fan rivojida o'rni haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, arab tilining tarixshunoslik, tilshunoslik, manbashunoslik va hujjatchilik sohalaridagi ahamiyati yoritiladi. Maqola mazmunida arab tilining Markaziy Osiyo va jahon sivilizatsiyasi o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalardagi o'rni qisqacha ifodalanadi.

Kalit so'zlar: Arab tili, Markaziy Osiyo, Islom sivilizatsiyasi, ilm-fan, madrasalar, allomalar, arab yozuvi, madaniyatlararo aloqalar.

Abstract

This article is devoted to the role of the Arabic language in the civilization of Central Asian states. It describes the introduction of the Arabic language into Central Asia and its role in social, cultural, and scholarly life in connection with Islamic civilization. The article presents information on the scholarly environment formed in Central Asia, the works created by local scholars in Arabic, and their contribution to the development of regional and pan-Islamic science. It also highlights the significance of the Arabic language in the fields of historiography, linguistics, source studies, and documentation. The content of the article briefly outlines the role of the Arabic language in scholarly and cultural relations between Central Asia and world civilization.

Keywords: Arabic language, Central Asia, Islamic civilization, science, madrasas, scholars, Arabic script, intercultural relations.

Markaziy Osiyo insoniyat tarixida qadimdan muhim sivilizatsion hudud sifatida tanilgan bo'lib, bu mintqa Sharq va G'arbni bog'lovchi strategik makon vazifasini bajargan. Buyuk Ipak yo'li orqali o'tgan savdo, madaniy va ilmiy



aloqalar Markaziy Osiyoni turli xalqlar, tillar va madaniyatlar chorrahasiga aylantirgan. Ushbu hududda qadimgi davrlardan boshlab sugʻdiy, xorazmiy, baqtriy, forsiy va turkiy madaniyatlar shakllanib, mintaqaning sivilizatsion taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshgan. Biroq VIII asrda Islom dini kirib kelishi Markaziy Osiyo tarixida tub burilish yasab, mintaqaning diniy, ilmiy va madaniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. [4;64]

Islom dini bilan birga Markaziy Osiyoga arab tili ham kirib keldi. Arab tili bu hududda oddiy muloqot vositasi sifatida emas, balki Qurʼon nozil boʻlgan muqaddas til, ilm-fan va yozma madaniyat tili sifatida qaror topdi. Shu sababli arab tilining Markaziy Osiyodagi mavqei boshqa tillarnikidan farqli ravishda chuqur va barqaror boʻldi. Arab tili diniy eʼtiqodlar bilan birga jamiyatning tafakkur tizimini, ilmiy dunyoqarashini va huquqiy meʼyorlarini shakllantirishda faol ishtirok etdi.

Markaziy Osiyo xalqlari Islomni qabul qilgach, arab tilini oʻrganishga alohida eʼtibor bera boshladilar. Chunki Qurʼon, hadis, tafsir, fiqh kabi asosiy diniy manbalar arab tilida boʻlib, ularni asl holida anglash faqat shu til orqali mumkin edi. Natijada arab tili diniy taʼlimning asosiy vositasiga aylandi va qisqa vaqt ichida madrasalar, masjidlar hamda ilmiy muhitning yetakchi tiliga aylana boshladi. [4;85] Bu jarayon arab tilining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida mustahkam oʻrin egallashiga zamin yaratdi. Arab tilining ahamiyati faqat diniy soha bilan cheklanib qolmadi. Oʻrta asrlarda Islom sivilizatsiyasining yuksalishi bilan arab tili butun musulmon dunyosida ilm-fan, falsafa, tibbiyot, matematika va tabiiy fanlarning asosiy tili sifatida shakllandi. Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan koʻplab buyuk allomalar oʻz ilmiy faoliyatini aynan arab tili orqali amalga oshirdilar. Bu holat mintaqaning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini yanada kuchaytirdi va arab tilini Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirdi. Shu bois arab tilining Markaziy Osiyo davlatlari sivilizatsiyasidagi oʻrnini oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va sivilizatsiya tadqiqotlari nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. [3;96] Arab tili orqali shakllangan ilmiy va madaniy meros mintaqaning oʻziga xos sivilizatsion qiyofasini belgilab berdi.

Asosiy qism

Arab tilining Markaziy Osiyo davlatlari sivilizatsiyasidagi oʻrni, avvalo, ushbu tilning ilmiy va madaniy meros shakllanishidagi hal qiluvchi roli bilan belgilanadi. VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyo hududida Islom dini bilan birga yangi ilmiy tafakkur tizimi shakllandi va bu tizimning asosiy ifoda vositasi arab tili boʻldi. Aynan arab tili orqali Markaziy Osiyo xalqlari Sharq sivilizatsiyasining yuksak



ilmiy an'analari bilan bevosita bog'landi. Bu jarayon keyinchalik Sharqshunoslik fanining shakllanishida muhim manba vazifasini bajargan ulkan ilmiy merosni vujudga keltirdi. Markaziy Osiyo o'rta asrlarda Islom sivilizatsiyasining eng yirik ilmiy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv kabi shaharlarda faoliyat yuritgan ilmiy muhitda arab tili ilm-fan tili sifatida mutlaq ustunlikka ega bo'lgan. [6;73-98] Arab tilida yozilgan asarlar nafaqat diniy fanlarni, balki matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, falsafa, tarix va filologiyani ham qamrab olgan. Shu sababli arab tili Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurining shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Sharqshunoslik fanida Markaziy Osiyo allomalari yaratgan arab tilidagi ilmiy meros alohida o'rin egallaydi. Chunki bugungi kunda Sharqshunoslikda o'rganilayotgan ko'plab manbalar aynan arab tilida yozilgan va Markaziy Osiyo bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning tarix, etnografiya va geografiyaga oid asarlari Sharqshunoslik fanining asosiy manbalari qatoriga kiradi. Beruniy o'z asarlarida Sharq xalqlari madaniyati, urf-odatlar va ilmiy qarashlarini arab tili orqali ilmiy asosda bayon qilgan.[4;158] Bu holat arab tilining Sharqshunoslik ilmida manbashunoslik ahamiyatini yanada oshiradi.

Misol uchun Abu Ali ibn Sino ijodi ham arab tilining ilmiy merosdagi o'rnini yaqqol namoyon etadi. Uning "Al-Qonun fit-tibb" asari arab tilida yozilgan bo'lib, asrlar davomida nafaqat Sharqda, balki Yevropa universitetlarida ham asosiy tibbiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Sharqshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, Ibn Sino asarlari Sharq ilmiy tafakkurining eng yetuk namunalariidan biri bo'lib, arab tilining ilm-fan tarixidagi xalqaro mavqeini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyodan chiqqan allomaning arab tilida yozishi uning ilmiy merosini butun dunyoga tanitishga imkon yaratgan. Shu bilan birga arab tili Markaziy Osiyoda hadis va fiqh ilmlarining rivojida ham muhim rol o'ynagan. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy kabi buyuk muhaddislar yaratgan hadis to'plamlari bugungi kunda Sharqshunoslik va Islomshunoslik fanlarining asosiy manbalari hisoblanadi.[9;90-115] Ularning asarlari arab tilida yozilgani sababli, bu manbalarni o'rganish arab tilini mukammal bilishni talab etadi. Shu jihatdan arab tili Sharqshunoslik fanida nafaqat tadqiqot obyekti, balki ilmiy izlanish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi madrasalar faoliyati ham arab tilining ilmiy merosdagi o'rnini mustahkamladi. Madrasalarda tilshunoslik, mantiq, balog'at, sarf va nahv ilmlari chuqur o'rgatilgan. Bu fanlar arab tilining nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, ilmiy matnlarni tahlil qilish madaniyatini shakllantirgan. Natijada Markaziy Osiyo olimlari murakkab ilmiy matnlarni sharhlash, tahlil qilish va tarjima qilishda yuqori saviyaga



erishganlar. Bu holat Sharqshunoslikda “sharh va hoshiyalar an’anasi” sifatida tanilgan ilmiy uslubning rivojiga katta hissa qo’shgan.[2;54]

Arab tilida yaratilgan ilmiy meros Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyasi bilan aloqalarini ham mustahkamladi. Arab tilidagi asarlar keyinchalik lotin, yunon va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinib, Yevropa Uyg’onish davriga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Bugungi Sharqshunoslik tadqiqotlarida aynan Markaziy Osiyo allomalari asarlari Sharq va G’arb ilm-fani o’rtasidagi bog’lovchi bo’g’in sifatida e’tirof etiladi. Bu esa arab tilining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beradi. Shuningdek, arab tili Markaziy Osiyoda yozma manbashunoslikning rivojiga asos soldi. Tarixiy asarlar, biografik lug’atlar, ilmiy risolalar arab tilida yozilgan bo’lib, bugungi kunda Sharqshunoslik fanida asosiy manbalar sifatida tadqiq etilmoqda. Ushbu manbalar orqali Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti ilmiy jihatdan tiklanmoqda. Bu holat arab tilining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilm-fan uchun ham ahamiyatini ko’rsatadi.

Umuman olganda, arab tili Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida ilmiy tafakkur, yozma madaniyat va Sharqshunoslik fanining shakllanishiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri bo’lgan. Arab tilida yaratilgan ilmiy meros bugungi kunda ham Markaziy Osiyo tarixini, madaniyatini va ilmiy an’analarini o’rganishda muhim manba bo’lib qolmoqda. Arab tilining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o’rni Sharqshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yanada yaqqol namoyon bo’ladi.[1;45-67] Chunki bugungi Sharqshunoslik tadqiqotlarining katta qismi aynan arab tilidagi qo’lyozmalar va yozma manbalarga tayanadi. Markaziy Osiyo hududida yaratilgan arab tilidagi asarlar nafaqat mintaqa tarixini, balki butun Islom sivilizatsiyasining ilmiy manzarasini tiklashda asosiy manba bo’lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan arab tili Sharqshunoslikda faqat tadqiqot obyekti emas, balki metodologik vosita sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoda arab tilida yaratilgan ilmiy merosning muhim qismi tarixshunoslik va manbashunoslik bilan bog’liqdir. O’rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar, tabaqot va tarjimai hol (biografik) lug’atlar bugungi kunda Sharqshunoslik fanida asosiy tadqiqot manbalari hisoblanadi. Bu asarlar orqali Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari, ilmiy muhit va madaniy hayoti haqida batafsil ma’lumot olish mumkin. [5;22] Arab tili ushbu manbalarni umumislomiy ilmiy muhitga olib chiqqan va ularning keng hududlarda tarqalishini ta’minlagan.

Arab tilining tilshunoslik va filologiya sohasidagi ahamiyati ham alohida e’tiborga loyiqdir. Markaziy Osiyoda sarf va nahv imlari chuqur rivojlangan



bo'lib, bu fanlar arab tilining nazariy asoslarini mukammal o'rganishga xizmat qilgan. Mahalliy olimlar tomonidan yozilgan grammatik risolalar, sharh va hoshiyalar Sharqshunoslik fanida arab filologiyasining muhim bo'g'ini sifatida baholanadi. Bu jarayon Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurida tahliliy yondashuv va mantiqiy fikrlash madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Arab tilida yozilgan falsafiy va tasavvufiy asarlar ham Markaziy Osiyo ilmiy merosining muhim qismidir. Tasavvuf ta'limoti vakillari o'z g'oyalarini asosan arab tilida bayon qilganlar va bu orqali ularning qarashlari butun Islom olamiga tarqalgan. Sharqshunoslik nuqtayi nazaridan, ushbu asarlar Sharq falsafasi va ma'naviy tafakkurini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi. Arab tili bu jarayonda g'oyaviy va terminologik aniqlikni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Arab tilining Markaziy Osiyo va Yevropa ilm-fani o'rtasidagi vositachilik roli ham Sharqshunoslik fanida alohida o'ringa ega. O'rta asrlarda arab tilidagi ilmiy asarlarning lotin tiliga tarjima qilinishi Yevropa Uyg'onish davrining ilmiy asoslarini yaratdi. Bugungi Sharqshunoslik tadqiqotlarida Markaziy Osiyo allomalari arab tilida yozgan asarlar Sharq va G'arb ilm-fani o'rtasidagi tarixiy aloqalarni o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.[1;71] Bu holat arab tilining sivilizatsiyalararo muloqotdagi rolini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, arab tili Markaziy Osiyoda hujjatchilik va yozma madaniyatning rivojiga kuchli turtki berdi. Vaqfnomalar, shartnomalar, sud hujjatlari va ilmiy risolalarning arab tilida yuritilishi hujjatli manbalar tizimini vujudga keltirdi. Ushbu hujjatlar bugungi kunda Sharqshunoslik va tarix fanlarida birlamchi manbalar sifatida tadqiq qilinmoqda. Arab tilida yuritilgan hujjatchilik an'anasi Markaziy Osiyo davlatlarida huquqiy va ma'muriy madaniyat shakllanishiga asos bo'lgan. Arab tilining mintqa madaniy xotirasini shakllantirishdagi o'rni ham nihoyatda muhimdir. Arab tilida yozilgan tarixiy va ilmiy asarlar avloddan-avlodga o'tib, Markaziy Osiyo xalqlarining o'zlikni anglash jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Sharqshunoslik fanida bu jarayon madaniy merosning uzviyligi va davomiyligi sifatida talqin etiladi. Arab tili ushbu uzviylikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lgan.[3;118] Umuman olganda, arab tili Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida ilmiy merosni yaratish, saqlash va avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Sharqshunoslik fanining bugungi rivoji aynan shu arab tilidagi boy ilmiy merosga tayangan holda amalga oshmoqda. Shu jihatdan arab tili Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ilmiy asoslarini shakllantirgan va jahon ilm-fani bilan bog'lagan muhim sivilizatsion omil sifatida baholanadi.




Xulosa

Xulosa qilib aytganda, arab tili Markaziy Osiyo davlatlari sivilizatsiyasi tarixida beqiyos ilmiy, madaniy va ma'naviy ahamiyat kasb etgan muhim omillardan biri hisoblanadi. U nafaqat diniy til sifatida, balki ilm-fan, davlat boshqaruvi, hujjatchilik va madaniy muloqot tili sifatida mintaq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Arab tilining Markaziy Osiyoga kirib kelishi bilan bu hudud jahon ilmiy-madaniy jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylangan. Markaziy Osiyoda arab tilida yaratilgan ilmiy meros Sharqshunoslik fanining asosiy manba bazasini tashkil etadi. Tarix, falsafa, tibbiyot, astronomiya, tilshunoslik, fiqh va tasavvufga oid asarlarning aksariyati aynan arab tilida yozilgan bo'lib, bu holat arab tilining ilmiy universallik xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Mahalliy allomalarning arab tilida ijod qilishi ularning ilmiy qarashlarini butun Islom olamiga yetkazish imkonini bergan va Markaziy Osiyoni islom sivilizatsiyasining yetakchi ilmiy markazlaridan biriga aylantirgan.

Arab tilining Markaziy Osiyo ilmiy tafakkuriga ta'siri faqat mazmun bilan cheklanmay, balki metodologik jihatdan ham namoyon bo'lgan. Sarf, nahv, mantiq va balog'at ilmlarining rivoji natijasida ilmiy tafakkurda tizimlilik, aniqlik va tahliliy yondashuv shakllangan. Bu holat mintaqada ilmiy an'analar va akademik muhitning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Sharqshunoslik fanida ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo ilmiy maktablarining shakllanishi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Shuningdek, arab tili Markaziy Osiyo va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida ilmiy va madaniy aloqalarni ta'minlovchi vosita vazifasini bajargan. Arab tilida yozilgan asarlarning Yevropa tillariga tarjima qilinishi natijasida Markaziy Osiyo allomalarining ilmiy merosi jahon ilm-fani rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon arab tilining sivilizatsiyalararo bilim almashuvidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.[9;115] Natijada, arab tili Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy poydevorini shakllantirgan asosiy omillardan biri sifatida baholanishi lozim. Bugungi kunda ham arab tilidagi boy qo'lyozma meros Sharqshunoslik, tarixshunoslik va manbashunoslik fanlarining muhim tadqiqot manbasi bo'lib qolmoqda. Arab tilining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o'rnini chuqur va tizimli o'rganish nafaqat mintaq tarixini, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotini to'laqonli anglash uchun muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'rinboyev B., Rahmonov U. Arab tili va islom madaniyati. — Toshkent: O'qituvchi, 1996. — 204 b.
- 2.Xayrullayev M. O'rta Osiyo mutafakkirlari. — Toshkent: Fan, 1994. — 312 b.
- 3.Islomov Z. Sharqshunoslikka kirish. — Toshkent: Universitet, 2010. — 256 b.





- 4.Hasanov S. Islom madaniyati tarixi. — Toshkent: Ma'naviyat, 2003. — 224 b.
 - 5.Abdurahmonov G'. Arab filologiyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 1987. — 198 b.
 - 6.Quronov M. Markaziy Osiyo tarixida islom. — Toshkent: Akademiya, 2001. — 240 b.
 - 7.Mirzayev T. Sharq qo'lyozmalari va manbashunoslik. — Toshkent: Fan, 2008. — 216 b.
 - 8.Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild. — Toshkent: Fan, 2000. — 304 b.
 - 9.Rahimov N. Islom sivilizatsiyasi tarixi. — Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2012. — 288 b.
- www.wikipedia

